



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in
Central Asia*
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в
Центральной Азии*
международный научный рецензируемый журнал

2024/1 (10)

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

DOI: 26739/2118-9998

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

SAIDOVA Galina Karimovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich – psixologiya fanlari doktori, professor.

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

BEKMURADOV Adham Sharipovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova – pedagogika fanlari doktori, professor.

RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

SAIDOV Akmal Xolmatovich – yuridik fanlari doktori, professor.

YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna – tibbiyot fanlari nomzodi.

UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

ZIYAYEV Azamat Xamidovich – tarix fanlari doktori, professor.

ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li – psixologiya fanlari doktori.

TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Сайдова Галина Каримовна – доктор экономических наук, профессор.

Шоумаров Гайрат Бахрамович – доктор психологических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

Бекмурадов Адхам Шарипович – доктор экономических наук, профессор.

Маъруфова Гулнора Махмудовна – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

Мусурманова Айниса Мусурмановна – доктор педагогических наук, профессор.

Рахимова Нигина Хайруллаевна – доктор экономических наук, профессор.

Сайдов Акmal Xolmatovich – доктор юридических наук, профессор.

Якубжанова Dilobar Batirovna – доктор педагогических наук, доцент.

Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna – кандидат медицинских наук.

Умирзаков Bakhodir Khamidovich – доктор экономических наук, профессор.

Зияев Azamat Khamidovich – доктор исторических наук, профессор.

Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli – доктор психологических наук.

Turakulov Ulugbek Holbutayevich – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – Doctor of Sociological sciences, Professor.

Saidova Galina Karimovna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich – Doctor of Psychological sciences, Professor.

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

Bekmuradov Adkham Sharipovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Marufova Gulnora Makhmudovna – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

Musurmanova Aynisa Musurmanovna – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

Rakhimova Nigina Khayrullayevna – Doctor of Economic sciences, Professor.

Saidov Akmal Xolmatovich – Doctor of Juridical sciences, Professor.

Yakubjanova Dilobar Batirovna – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

Tashmukhamedova Diloram Ghafurjanovna – Candidate of Medical sciences.

Umirzakov Bakhodir Khamidovich – Doctor of Economic sciences, Professor.

Ziyayev Azamat Khamidovich – Doctor of Historical sciences, Professor.

Abdusamatov Xasanboy Usmonjon ugli – Doctor of Psychological Sciences.

Torakulov Ulugbek Holbutayevich – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

XALQARO TAHIR HAY'ATI:

Doktor Rashmini Koparkar,

Rossiya va Markaziy Osiyon

o'rganish markazi dotsenti

Xalqaro tadqiqotlar maktabi,

Javoharlal Neru universiteti,

Nyu-Dehli, Hindiston

Artamonova Yekaterina Iosifovna,

Chelyabinsk davlat madaniyat

instituti,

pedagogika fanlari doktori, professor

Doktor Priti Kesavan,

Texnologiya fakulteti boshlig'i,

London biznes va moliya maktabi,

Singapur

МЕЖДУНАРОДНАЯ

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Доктор Рашмини Копаркар,

Доцент Центра исследований

России и Центральной Азии,

Школа международных

исследований,

Университет Джавахарлала Неру,

Нью-Дели, Индия

Артамонова Екатерина

Iosifovna,

Челябинский государственный

институт культуры,

доктор педагогических наук,

профессор

Доктор Прити Кесаван,

Руководитель Технологического

факультета

Лондонская школа бизнеса и

финансов, Сингапур

INTERNATIONAL EDITORIAL

BOARD:

Dr. Rashmini Koparkar

Assistant Professor

Centre for Russian and Central Asian

Studies

School of International Studies

Jawaharlal Nehru University

New Delhi, India

Artamonova Yekaterina Iosifovna

Chelyabinsk State Institute of Culture

Doctor of Pedagogical Sciences,

Professor

Dr. Preethi Kesavan

Head, School of Technology

London School of Business and

Finance, Singapore

MENEJMENT

Abdullajanova D.S. Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari	4
--	---

SOTSILOGIYA

Saipova M. Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar	10
Xonturayev B. Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari	16
Йулдошева У. Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане	25
Hashimova G.I. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari	32

MAHALLA VA HAYOT

Isamutdinov R.R. Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati	37
--	----

OILA VA JAMIYAT

Abdiraimova Sh.A. Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari.....	44
Rahimova M. Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi	49
Dovranova O.D. Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish.....	53
Mahkamov U.A. So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida.....	58

PSIXOLOGIYA

Рахимова И.И., Каримова Г.О. Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха	64
Абидова З.А. Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности	69
Ishonkulova N.I. Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	75
Raxmonova Z.N. Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari.....	80

PEDAGOGIKA

Ortikov U.X. The socio-educational model in second language acquisition.....	86
Yulchiyeva D.X. Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat	92
Аблакулов Ш.Д. Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов	98
Mirhamidova M. Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari	104
Safoyeva R.J. Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari.....	109
Yakubov O.T. Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari	114

TARIX

Sharipova N.A. XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi.....	118
--	-----



Saipova Maloxat,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)
e-mail: malohat_saipova@mail.ru

MIGRATSIYA JARAYONINING GLOBALLASHUVI: IJOBİY VA SALBIY OQIBATLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif olimlarning tadqiqotlari asosida mehnat migratsiyasi haqida qisqacha to'xtab o'tiladi. Shuningdek, mehnat migrantlarining farzandlari bilan o'tkazgan amaliy tadqiqoti natijalarini bayon qilgan holda mehnat migratsiyasining mamlakatimiz uchun ijobiy va salbiy oqibatlarini tahlil qiladi.

Tayanch so'zlar: ijtimoiy taraqqiyot, aholi, mehnat migratsiyasi, harakatlanish, iqtisodiy omillar, munosabatlar, ijobiy ta'sir, salbiy ta'sir.

Аннотация. В данной статье автор кратко затрагивает вопрос трудовой миграции на основе исследований ученых. Также анализируются положительные и отрицательные последствия трудовой миграции для нашей страны, описываются результаты тематического исследования, связанные с детьми трудовых мигрантов.

Ключевые слова: социальный прогресс, население, трудовая миграция, экономический фактор, отношения, положительное влияние, отрицательное влияние.

Annotation. In this article, the author briefly touches on labor migration based on the research of scientists. The positive and negative consequences of labor migration for our country are also analyzed, and the results of case study related to the children of labor migrants are described.

Keywords: social progress, population, labor migration, economic factor, relationships, positive impact, negative impact.

Kirish. Davlatlarning ijtimoiy taraqqiyoti, Kaholisining turmush tarzi, kapitallar harakatlanishi, hududlar rivojlanishi hamda jamiyatning huquqiy va siyosiy madaniyati shakllanishiga ulkan ta'sir ko'rsatayotgan mehnat migratsiyasi jarayonining o'zi ham siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa o'zgarishlarga uchraydi. Bu shunday jarayonki, hech bir davlat, mamlakat, millat yoinki ijtimoiy guruhlarning uni boshqarish imkoniyati mavjud emas. Shunday ekan, har bir davlat o'z fuqarolarini himoyalash maqsadida muayyan choralar ko'rishi talab etiladi.

Bizning mamlakatimizda ham tashqi va ichki mehnat migratsiyasi jarayonlarini idora qilish, tartibga solish yuzasidan tub islohotlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-sonli Farmonining¹ "Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi 60-sonli Farmoni.

muammolarga yondashish” nomli 6-yo‘nalishining “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasini ta’minlash hamda samarali migratsiya siyosatini yuritish” mavzusidagi 86-maqсади aynan migratsiya masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bir qator vazifalar belgilab qo‘yilgan. Mamlakatimizda mehnat migratsiyasi borasida qabul qilinayotgan qonunlar, hukumat rahbarining farmonlari, shuningdek, mavjud qonunlarga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar nafaqat tashqi va ichki migratsiya ishtirokchilari bo‘lgan fuqarolarni, balki ularning yurtda qolgan oilalarini, shuningdek, qaytib kelganlar reintegratsiyasi masalalarini ham qamrab oлган.

Maqsad va uni asoslash. Jahan iqtisodiyotida mutanosiblikni ta’minlashga xizmat qiladigan, turli mamlakatlar o‘rtasida yangi bilim, tajriba va malaka almashinuviga ko‘maklashadigan mehnat migratsiyasi jarayoni bugungi kunda oilalar ajrimiga, qadriyatlarning o‘zgarishiga olib kelmoqda, shuningdek, oiladagi ota yoki onaning migratsiyada bo‘lishi bolalarning psixologik rivojlanishiga, ularning ta’limi, tarbiyasiga muayyan ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ilmiy izlanishlar olib borishga, tegishli tashkilotlar uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘ladi.

Migratsiya – aholining borliqqa oid harakatlanishi sifatida mutlaq barcha insoniy jamiyatlarga xos bo‘lgan ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Migratsiya jarayonlari bugungi kunga kelib globallashib bormoqda va deyarli barcha mintaqa va mamlakatlarni o‘z qamroviga qurshab oldi². “Zamonaviy olamda migratsiya oqimining muhim tarkibiy qismi mehnat migratsiyasi hisoblanadi. Mehnatga oid resurslarning harakatlanishi butunjahon xo‘jaligini uyushtirishning barcha bo‘g‘inlarini qamrab oladi, dunyo davlatlari va mintaqalari o‘rtasida bo‘lgani kabi milliy chegaralar ichida ham, uning ma’muriy-hududi tuzilmalari o‘rtasida ham amalga oshiriladi. Bu ko‘chib yurish natijasida ishchi kuchining global jahon bozori shakllanadi”³.

² Муминов Н.Г. Пути эффективного использования трудовых ресурсов и повышения занятости населения в регионах Республики Узбекистан // Современные технологии управления. ISSN 2226-9339. – №3 (96). Номер статьи: 9606. Дата публикации: 2021-11-01. Режим доступа: <https://sovman.ru/article/9606/>

³ Гибадуллин М.З., Нуриева А.Р. Миграция в России: проблемы и последствия // Миграционные процессы:

Insonlar yashaydigan barcha doiralarni qamrab olishga ulgurgan mehnat migratsiyasiga undovchi sabablar:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy. Moddiy farovonlikni ta’minlash, farzandini oilali qilishdan tortib, uyyoy, mashina sotib olishgacha bo‘lgan intilishlarni qanoatlanirish maqsadida o‘zga yurtlarga chiqib ketish.

2. Ma’naviy-maishiy sabab. Ota-onalardan birining bo‘yi yetgan qiz yoki o‘g‘il farzandi bilan qayta oila qurishi, ba’zida bu farzandning keksalarga qoldirilishi natijasida ularga bo‘ysunmay yoki yangi oilada ko‘nikib keta olmasliklari tufayli ko‘chaga chiqib ketishlari, mehnat migratsiyasiga jalb qilish asnosida odam savdosiga uchrashlari kabi salbiy oqibatlarga olib kelayotgani achinarli hol.

3. Psixologik. Oiladagi muhit (o‘gay ota, o‘gay ona, opa-singil, aka-ukalar tufayli), emotsiyonal bosim sabab o‘zga yurtda mehnat qilishni ma’qul topish.

Migratsiyaning motivatson tabiatiga e’tiborni qaratadigan psixologiyada migratsiya bir qator ijtimoiy ehtiyojlar, shu jumladan, o‘z-o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan ehtiyojni qondirish usuli sifatida ko‘rib chiqiladi. Biroq hozirda psixologiya fani migratsiyani kelajak avlod tarbiyasiga muayyan ta’sir ko‘rsatadigan hodisa sifatida baholagancha migratsiya masalasida nafaqat bir millat, balki turli millatlar munosabatlaridagi, shuningdek, migratsiyaga ketgan oila a’zolari va o‘z yurtida qolganlarning o‘zaro munosabatlar xususiyatlarini ham tadqiq etadi. Tadqiqotimiz mavzusi aynan mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning psixologik rivojlanishiga bag‘ishlangani bilan ham dolzarblik kasb etadi. Chunki vaqt o‘tgan sari borgan joylarining muhitiga ko‘nikkan, yangi tanishlar orttirgan mehnat migrantlari “oilamga yordam beryapman-ku”, “pul yuboryapman-ku”, “nima qilay, men ishlashim kerak” mazmunidagi vajlar bilan muloqotdan cheklanadilar. Bu, albatta, ularning o‘z vatanlarida qolgan farzandlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi, xususan, maktabgacha yoshdagи bolalarda:

- emotsiyonal bog‘langanlik shakllanmaydi;

тренды, вызовы, перспективы: сборник материалов международной научно-практической конференции. / Под ред. Н.Г.Багаутдиновой, Е.В.Фахрутдиновой. – Казань: Отечество, 2014. – Б 89-90.

- kattalarga, voqea-hodisalarga ishonch so'nadi;
- xavotirlanish hissi kuchayadi;
- ba'zida hatto otasi yoki onasining boshqa mamlakatga chiqib ketishida o'zini aybdor deb biladi.

Maktab yoshidagi bolalarda quyidagi kabi holatlar kuzatiladi:

- yangi muhitga moslashishda qiyinchilikni his qilish;
- tengdoshlariga erkin qo'shilib keta olmaslik;
- o'quv predmetlarini o'zlashtirishda qynalish;
- xayolchan, taassurotlarga beriluvchan bo'lish;
- kayfiyatning tez-tez almashinishi;
- jamoaviy mashg'ulotlarga qiziqishni namoyon qilmaslik;
- boshqa odamlarga nisbatan xayrixohliklarini ko'rsata olmaslik.

O'smirlik yoshida:

- o'zaro munosabat o'rnatishda qynalish;
- jizzaki, serjahl bo'lib qolish;
- faollik, kayfiyatning keskin o'zgarishi;
- muloqotda suhbat mavzusidan tez-tez chalg'ish;
- qarama-qarshi jins vakillari bilan to'g'ri munosabat o'rnatishda muammoni his qilish.

Bu esa ularning qarashlariga, oilada, jamiyatda, o'rtoqlari orasida o'zlarini tutishlariga muayyan ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Ota-onasidan biri yoki har ikkovi mehnat migratsiyasida bo'lgan oilalarda tarbiyalanayotgan bolalarda shaxslararo munosabatlar tizimi to'g'risidagi tasavvur rasmiy xarakter kasb etadi, shuningdek, oiladagi vaziyat tufayli erta ulg'ayayotganliklarini namoyish qildilar, o'z vaziyatlariga nisbatan salbiy fikrlashni boshlaydilar.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.

Adabiyotlar tahlili asosida aytish mumkinki, migratsiya salbiy va ijobjiy tomonlari bilan turli fan yo'nalihidagi tadqiqotchilarini o'ziga jalg'etib keladi. Yuridik fanlar nomzodi T.N. Balashova migratsianing ijobjiy jihatlarini quyidagicha izohlaydi: "Aholi migratsiyasi (avvalo, mehnat migratsiyasi) – bu o'lim va keksayish natijasida mehnatga layoqatli shaxslar miqdorining tabiiy

pasayishi o'rnini to'ldirish imkonini beruvchi me'yoriy va hatto ijobjiy hodisadir"⁴.

Hozirda O'zbekiston aholisining ham mehnat migratsiyasi bo'yicha ko'rsatkichlari bu ijtimoiy hodisani o'rganish uchun yetarlicha miqdorni tashkil etadi. Chunki "jahon xo'jaligi tizimida O'zbekiston salmoqli o'ringa ega bo'lib, xorijiy mamlakatlarda fuqarolarimiz malakasini oshirib kelish bilan bir qatorda, o'z bilim, salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etmoqdalar"⁵.

O.D. Komarova va V.A. Tishkovlarning ta'kidlashicha, "Migratsion oqimlar tabiatiga ko'ra, jamiyatning ochiqligi va demokratligi darajasi to'g'risida, uning urbanizatsiyalashuvni darajasi haqida, iqtisodiyot va infratuzilmasining samaradorligi, mintaqaviy rivojlanish nomutanosibligi, xalqlararo munosabatlar holati, yetilib kelayotgan yoki yaqqol etnik nizolar to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi"⁶.

Ta'kidlash lozimki, hozirda muayyan vaqtarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan mehnat migratsiyasi jarayoni ma'lum bir hudud, mamlakat, mintaqaning ijtimoiy hayotiga o'zining ijobjiy, salbiy, shuningdek, siyosiy ta'sirini o'tkazadi. Mehnat migratsiyasi ta'sirida:

- insonning mehnat bandligi ta'minlanishi;
- kasbiy salohiyatning o'sishi, oila iqtisodiy ahvolining yaxshilanishi, moddiy qadriyatlarining ortishi;
- mamlakatlararo hamkorlik o'rnatilishi;
- ijtimoiy tajribaning yuksalishi;
- jamiyat madaniyatiga turli yangiliklarning kirib kelishi kabi ijobjiy siljish sodir bo'ladi.

Biroq mehnat migratsiyasi sababli iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan farqli ravishda jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy hayotida turli inqirozlar yuzaga kelishiga sabab bo'layotgani ham sir emas, albatta. Ya'ni:

- oila hayotidagi disfunktional holatlarning keskin ifodalanishi, jumladan, er va xotin

⁴ Балашова Т.Н. Миграция и демография как неотложные направления развития приоритетных национальных проектов // Миграционное право, 2007. – № 1.

⁵ Tolametova Z.A. Globallashuv jarayonida mehnat migratsiyasi jarayoni va uni tartibga solishning yo'naliishlari // J.: Iqtisod va moliya, 2016. 4-son. – В. 58-65.

⁶ Комарова О.Д., Тишков В.А. Миграция и миграционная политика // Миграции и новые диаспоры в постсоветских государствах. / Отв. ред. В.А. Тишков. – Москва: Ин-т этнологии и антропологии РАН, 1996. – С.11.

munosabatlari, ota-onasi va farzand munosabatlari tizimidagi disfunksiyalar;

- buning oqibati o'laroq oilalar orasida ajrimlarning ortishi, er va xotinlar orasida ishonchning yo'qolmoqda;

- voyaga yetmaganlarning ota-onasi qaramog'isiz yoki nazoratisiz qolishi kabi ijtimoiy-psixologik muammolarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Yana bir e'tiborni tortadigan jihat – migrantlar borib joylashgan hududda ularning huquqlari buzilishi, dini, irqi, millati yoki jinsiga bog'liq ravishda kamshitishga duchor qilinishidan tashqari o'zining yurtida qolgan oila a'zolariga ko'rsatadigan ta'siri:

- oila a'zolarining doimiy kutish holatida yashashi;

- xavotir hissining yuqoriligi;

- dastlab aloqa vositalari orqali ko'rishib, suhabatlashib, tursalar-da, keyinroq ularning qaytishlariga bo'lgan ishonchning so'nishi;

- moddiy jihatdan ta'minlanganlik birga bo'lishdek ma'naviy ozuqaning o'rnnini bosa olmasligi bilan ham alohida dolzarblik kasb etadi.

Aholi migratsiyasi jarayoniga turli soha tadqiqotchilarining qiziqlishi quyidagi sabablarga ko'ra ham ortib bormoqda:

- mehnat migratsiyasi qamrovi va geografiyasining misli ko'rilmagan tarzda kengaygani;

- mehnat migratsiyasi oqimi tuzilmasining o'zgarishi;

- majburiy migratsiya qamrovining o'sishi va geografiyasining kengayishi;

- zamonaviy dunyoning demografik rivojlanishida aholi migratsiyasi ahamiyatining oshishi.

Tadqiqot natijalari. Biz "Mehnat migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan farzandlarning psixologik rivojlanish xususiyatlari" mavzusidagi tadqiqotimiz⁷ doirasida Farg'onasi, Samarqand va Navoiy viloyatlaridagi umumiyoq o'rta ta'lim muktablarining 400 nafarga yaqin yuqori sinif o'quvchilari bilan o'tkazgan mehnat migratsiyasi ta'siri hamda oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlarni kuzatishlar asosida quyidagilarni aniqladik:


- o'zgaruvchan emotsiyonal fon ustunlik qiladi;
- o'qituvchilar bilan munosabatda passiv-ijrochilikni namoyon etadilar;

- tengdoshlari bilan o'zaro harakatlanishda "passiv qabul qiluvchi" pozitsiyasini egallaydilar;

- o'qituvchi tomonidan yangi usullarni qo'llaganda tashabbuskorlik, uyushqoqlik yoki muloqotchanlik kabi xislatlarni namoyon etmaydilar;


- o'zları kabi oilalardan bo'lgan tengdoshlariga yaqin munosabatda bo'ladilar.

Respublikamizning Samarqand viloyatidagi umumiyoq o'rta ta'lim muktablarining yuqori sinif o'quvchilari orasida o'tkazgan so'rovnoma-mizda ota-onasi yoki ulardan biri mehnat migratsiyasiga ketganlarning hissiy bog'langanligi masalasiga ham e'tibor qaratdik.



1-rasm.

So'rovnoma da ishtirok etgan o'smirlarning uchdan bir qismi (37%) o'z his-tuyg'ularini onalari bilan bo'lishsa, 30 foizi dardini akasi yoki opasi bilan baham ko'radi. Ularning ta'kidlashicha, vasiyalar ularni o'z ota-onalaridek tushunishmaydi, chunki ota-onalar farzandlarining fe'l-atvorini yaxshiroq biladi.



2-rasm.

⁷ Saipova M.L. Mehnat migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi muammolari // J.: Bola va Zamon, 2023. № 4. – B.11-13.

Kuzatishlarimiz va olimlarning tadqiqotlariga asoslanib, shuni aytish mumkinki, quyidagi holatlarda:

- ota-onalar o‘z farzandlariga iliq va nozik munosabatda bo‘lib, ularni emotsional jihatdan qabul qilsalar;
- ota-onalar o‘smirning yoshga oid xususiyatlarini tushungan holda yondashsalar, uni qiyin vaziyatlarda qanday qo‘llab-quvvatlashni bilsalar;
- ota-onalar o‘smirlar uchun o‘z nufuziga ega, shu sabab uning qiziqishlari jiddiy qabul qilinsa va u bilan hamkorlik muhitida yashalsagina uyg‘unlashgan ota-onalik munosabatlari o‘rnataladi.

Yangi sotsiomadaniy muhitga moslashuv migrantlar uchun katta psixologik noqulaylik, ya’ni ijtimoiy mavqeining yo‘qolishi, ijtimoiy ustakovkalarini tizimida sezilarli darajadagi o‘zgarishlar, shaxs va guruhga oid mansubligi sohasidagi yo‘qotishlar bilan kechishini inkor etmagan holda ularning o‘z yurtlarida qolgan voyaga yetmagan farzandlarining ayni rivojlanish bosqichida bir qancha ijtimoiy-psixologik qiyinchiliklarga duch kelishi, ayrim mehnat migrantlari o‘z oilalarini moddiy tomonidan ta’minlab turganidan quvonib, o‘zining “ota-onalik” burchlarini bajargan, deb hisoblashi natijasida masalaning ma’naviy tomoniga befarq qolayotgani ham mehnat migrantlarining oilaviy munosabatlari, bolalarning psixologik rivojlanishini chuqurroq ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Yakuniy qism. Mamlakatimiz misoldida mehnat migratsiyasini tahlil qilish asosida quyidagi fikrlarni alohida ta’kidlash mumkin:

1. Mehnat migratsiyasi fuqarolarning o‘zini o‘zi band qilish erkinligini ta’minlashi bilan birga qator muammo va qiyinchiliklarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘ladi. Chunki oila a’zolarining ehtiyojlarini to‘liq qanoatlantirishga imkon beruvchi barqaror daromad manbayiga ega bo‘lmanan insonlar uzoq va yaqin chet davlatga mehnat migratsiyasi bilan ketishga majbur bo‘ladilar. Bu esa, o‘z navbatida, oilaviy tizimni tashkil etuvchi turli munosabatlarda quyidagi yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi mumkin:

– oilaviy munosabatlar tizimidagi buzilishlar: katta avlod va kichik avlod o‘rtasidagi jonli muloqotning uzilishi, er-xotin munosabatida funksional buzilishlarning yuzaga kelishi;

ishonchsizlik, ajralishlar, xiyonat (chunki mehnat migratsiyasiga chiqib ketganlar ko‘p hollarda borib joylashgan mamlakatlarida yana bir oila quradilar yoki birga yashashni boshlaydilar);

– ota-onsa – farzand munosabatlaridagi muammolar. Yaqinlarini uzoq muddat ko‘rmagan, ular bilan faqat mobil telefon orqali muloqotda bo‘lgan bolaning shaxsi, hissiy-irodaviy sohasi, shaxslararo munosabatlari xususiyatlari, ota-onsa obro‘sisi va shu kabi boshqa munosabatlardagi muammolar yuzaga keladi;

– ota-onsa yoki ulardan birining nazoratisiz qolgan bolalarda shaxs tuzilmasida turli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi: o‘zining mansubligi sohasini anglashi, yaqinlariga nisbatan hissiy bog‘lanishning shakllanishidagi buzilishlar, ota-onsa funksiyalarining oiladagi to‘ng‘ich farzandga o‘tishi bilan bolalarning kun tartibi va majburiyatidagi o‘zgarishlar, ta’limiy qiziqishlarining so‘nishi va h.k.

2. Mehnat migratsiyasi fuqarolarning borib joylashgan mamlakat tilini, urf-odatlarini, qonunlarini bilmasligi oqibatida turli salbiy holatlarga, xususan, tutqunlikka, kamsitilishga, ekspluatatsiyaga, hatto odam savdosiga to‘qnash kelishlariga sabab bo‘lmoqda.

3. Mehnat migratsiyasi milliy qadriyatlarning avlodlardan avlodlarga yetkazilishida uzilishlarga olib kelmoqda. Chunki ba’zi hollarda mehnat migratsiyasining emmigratsiyaga aylanish holatlari kuzatilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, fuqarolarning boshqa mamlakatga yoki mintaqaga migratsiyaga ketish qarorini qabul qilishining oldini olish uchun ularni mahalliy mehnat bozorida mavjud bo‘lgan imkoniyatlardan, mavjud bo‘sh ish o‘rnlari hamda yangi kasb (masalan, merchandayzing, logist va h.k.) lar haqida xabardor qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Балашова Т.Н. Миграция и демография как неотложные направления развития приоритетных национальных проектов // Миграционное право. 2007, – № 1.
3. Гибадуллин М.З., Нуриева А.Р. Миграция в России: проблемы и последствия // Миграционные процессы: тренды, вызовы, перспективы: сборник материалов международной научно-практической конференции / Под ред. Н.Г. Багаутдиновой, Е.В. Фахрутдиновой. – Казань: Отечество, 2014. – Б. 89-90.
4. Комарова О.Д., Тишков В.А. Миграция и миграционная политика // Миграции и новые диаспоры в постсоветских государствах. / Отв. ред. В.А. Тишков. – Москва: Ин-т этнологии и антропологии РАН, 1996. – С. 11.
5. Муминов Н.Г. Пути эффективного использования трудовых ресурсов и повышения занятости населения в регионах Республики Узбекистан. // Современные технологии управления. ISSN 2226-9339. – №3 (96). Номер статьи: 9606. Дата публикации: 2021-11-01. Режим доступа: <https://sovman.ru/article/9606>
6. Saipova M.L. Mehnat migrantlari oilalarida voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi muammolari // – Toshkent: Bola va Zamon, 2023. – № 4. – B. 11-13.
7. Tolametova Z.A. Globallashuv jarayonida mehnat migratsiyasi jarayoni va uni tartibga solishning yo‘nalishlari // – Toshkent: Iqtisod va moliya, 2016. – № 4. – B. 58-65.

**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE**

MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии
Society, Gender and Family in Central Asia*

x a l q a r o i l m i y j u r n a l i

*международный научный журнал
international academic journal*

2024/1 (10)

DOI: 26739/2118-9998

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

Razzakova N., Sobirova E.,

Jabborov U.

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

Jurnaldagи materiallardan foydalانilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.

Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.